

Bugun, 2024-yilning 20-mart kuni Uzbekistan Airways tarixida ilk marta Toshkent – Qo‘qon – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha texnik parvoz amalga oshirildi.

Ekipaj a’zolari – uchuvchilar Amrillo Nutfullayev, Bektemir Gereyev va Sergey Bikov boshqaruvidagi Airbus A320neo havo kemasi Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrining yangilangan aeroportiga qo‘ndi. Uchuvchi Amrillo Nutfullaev ushbu parvoz taassurotlari bilan o‘rtoqlashdi:

- Havo ochiq edi, ertalab soat 8.00 da Toshkentdan uchib ketdik. 228 kilometr havoda uchib, atigi 33 daqiqada parvozni amalga oshirdik. Aviatsiya

an’analariga ko‘ra bizni suv arkasi bilan kutib olishdi. Texnik jihatdan bo‘lsada, birinchi reysni Qo‘qon shahrida yangilangan aeroportga amalga oshirganimdan juda xursandman, – deydi Amrillo Nutfullayev.

Eslatib o‘tamiz, Qo‘qonga parvozlar 20 yildan ortiq amalga oshirilmagan va ajoyib Navro‘z bayrami arafasida Toshkent va Qo‘qon aholisi uchun O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab yana bir sayohat manzili paydo bo‘ldi.



Download PDF